

Jonqobilov Jaxongirbek Normo'min o'g'li
Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti
Tarix va falsafa kafedrası o'qituvchisi
j.jonqobilov@dtpi.uz

SURXON-SHEROBOD MINTAQASI BO'YICHA PAXTACHILIKNI RIVOJLANTIRISHDA MODDIY TEXNIKANING O'RNI

Annotatsiya. Surxon-Sherobod mintaqasida paxtachilik tarmog'ini rivojlantirishda moddiy-texnika bazasining o'rni va ahamiyatini tahlil qilishga bag'ishlangan. Mazkur davrda sovet hukumatining agrar siyosati doirasida mintaqaga kirib kelgan yangi texnik vositalar, xususan, paxta terish mashinalari, yuqori quvvatli traktorlar va agrotehnik xizmat ko'rsatish tizimlarining samaradorlik darajasi o'rganilgan. Surxon-Sherobod vohasining o'ziga xos tabiiy-iqlimiy sharoiti, yerlarning sho'rlanish darajasi va relyef xususiyatlari hisobga olingan holda, texnikadan foydalanishning sifat ko'rsatkichlari qiyosiy tahlil etiladi.

Maqolada mexanizatsiyalash jarayonlarining paxta hosildorligini oshirishdagi ijobiy natijalari bilan bir qatorda, texnikaga xizmat ko'rsatishdagi kamchiliklar, kadrlar malakasi va ekstensiv rivojlanishning salbiy oqibatlarini ham yoritilgan. Tadqiqot natijalari mintaqqa iqtisodiy tarixini tushunish va qishloq xo'jaligini texnik modernizatsiya qilish bo'yicha tarixiy tajribadan xulosalar chiqarish imkonini beradi.

Kalit so'zlar. Surxon-Sherobod, paxtachilik, moddiy-texnika, mexanizatsiya, samaradorlik, agrosanoat majmuasi, sovet agrar siyosati, agrotehnika, hosildorlik, tarixiy tahlil.

РОЛЬ МАТЕРИАЛЬНОЙ ТЕХНИКИ В РАЗВИТИИ ХЛОПКОВОДСТВА В РЕГИОНЕ СУРХАН-ШЕРАБАД

Аннотация. Данная статья посвящена анализу роли и значения материально-технической базы в развитии хлопководства в Сурхан-Шерабадском регионе. В исследовании рассматривается эффективность внедрения новых технических средств, в частности хлопкоуборочных машин, мощных тракторов и систем агротехнического обслуживания, поступивших в регион в рамках аграрной политики советского правительства того периода. Проводится сравнительный анализ качественных показателей использования техники с учетом уникальных природно-климатических условий Сурхан-Шерабадского оазиса, степени засоления почв и особенностей рельефа.

В статье, наряду с положительными результатами процессов механизации в повышении урожайности хлопка, освещаются недостатки в техническом обслуживании, вопросы квалификации кадров и негативные последствия экстенсивного развития. Результаты исследования позволяют глубже понять экономическую историю региона и сделать выводы из исторического опыта технической модернизации сельского хозяйства.

Ключевые слова: Сурхан-Шерабад, хлопководство, материально-техническая база, механизация, эффективность, агропромышленный комплекс, советская аграрная политика, агротехника, урожайность, исторический анализ.

THE ROLE OF MATERIAL TECHNIQUES IN THE DEVELOPMENT OF COTTON GROWING IN SURKHAN-SHERABAD REGION

Annotation. This article is devoted to the analysis of the role and significance of the material and technical base in the development of the cotton industry in the Surkhan-Sherabad region. The study examines the efficiency of new technical tools, particularly cotton harvesters, high-capacity tractors, and agrotechnical service systems introduced to the region within the framework of the Soviet government's agrarian policy during that period. A comparative analysis

of qualitative indicators of machinery utilization is conducted, taking into account the unique natural and climatic conditions of the Surkhan-Sherabad oasis, soil salinity levels, and topographical features.

The article highlights both the positive outcomes of mechanization processes in increasing cotton yields and the shortcomings in technical maintenance, personnel qualifications, and the negative consequences of extensive development. The research findings provide insights into the economic history of the region and allow for drawing conclusions from the historical experience of technical modernization in agriculture.

Keywords: Surkhan-Sherabad, cotton farming, material and technical base, mechanization, efficiency, agro-industrial complex, Soviet agrarian policy, agrotechnics, productivity, historical analysis.

Kirish. 1920–1940-yillar O‘zbekiston agrar sektori tarixida an’anaviy dehqonchilikdan sanoatlashgan ishlab chiqarishga o‘tishning fundamental davri hisoblanadi. Surxondaryo okrugi o‘zining geografik joylashuvi va iqlimiy sharoiti bilan respublika paxtachilik bazasini kengaytirishda strategik ahamiyatga ega bo‘lgan. Biroq, 1920-yillarning o‘rtalariga qadar mintaqada texnik quvvatlarning yetishmasligi va irrigatsiya tizimlarining eskiligi iqtisodiy o‘lishni cheklab kelgan. Mazkur tadqiqotning maqsadi Surxondaryo okrugida qishloq xo‘jaligini isloh qilishning institutsional asoslarini (agromarkazlar, MTSlar) hamda "Toshselmash" zavodi mahsulotlari misolida texnik ta‘minotning iqtisodiy samaradorligini ochib berishdan iborat.

Material va metodlar. Tadqiqot jarayonida Surxondaryo viloyati davlat arxivi fondlari (xususan, 19-fond hujjatlari), "Toshkent haqiqati" gazetasi materiallari (1931–1975 yillar retrospektiv tahlili) hamda qishloq xo‘jaligini mexanizatsiyalashga oid ilmiy monografiyalar asosiy material sifatida olindi. Metodologik jihatdan tarixiy izchillik, qiyosiy-iqtisodiy tahlil va statistik ma‘lumotlarni guruhlash usullaridan foydalanildi. Shuningdek, 1931–1940-yillardagi agrotexnik ishlarning mexanizatsiyalash darajasi miqdoriy ko‘rsatkichlar orqali qiyoslandi.

Natijalar. Surxon-Sherobod mintaqasida yer-suv resurslaridan oqilona foydalanish va qishloq xo‘jaligini tizimli isloh qilishning institutsional asosi sifatida 1926-yilda Sherobod tumanida birinchi ixtisoslashgan agromarkaz faoliyati yo‘lga qo‘yilgan edi. Mazkur tuzilmaning strategik vazifasi mintaqada irrigatsiya-melioratsiya infratuzilmasini barpo etish bilan birga, yangi o‘zlashtirilgan yerlarda paxtachilik agrotexnikasini markazlashtirilgan holda boshqarish va nazorat qilishdan iborat bo‘lgan.

Muassasa faoliyatida ishlab chiqarishni tarmoq bo‘yicha differensiyalash tamoyili ustuvor ahamiyat kasb etgan. Tadqiq etilayotgan davrda agromarkaz tarkibiy jihatdan 12 ta paxtachilik hamda 5 ta bedachilik hududiga ajratilgan bo‘lib, bu o‘sha davrdagi dehqonchilik tizimida klasterli va hududiy-ishlab chiqarish komplekslari elementlarining ilk ko‘rinishlari sifatida baholanishi mumkin:

Hududning ixtisoslashtirilishi resurslarni maqsadli yo‘naltirish imkonini bergan.

Mintaqaning agrar salohiyatini oshirish maqsadida markaz ixtiyoriga 3 ta traktor birligining ajratilishi, yerga ishlov berish madaniyatini an’anaviy usullardan industrial usullarga o‘tkazishda poydevor bo‘lib xizmat qilgan [1, V.6.].

Sherobod agromarkazi timsolidagi institutsional o‘zgarishlar Surxondaryo agrar sektorini nafaqat miqdoriy o‘lishini, balki ma‘muriy boshqaruvning sifat jihatidan yangi — zamonaviy iqtisodiy mexanizmlarga o‘tishini ta‘minlagan. Mazkur jarayonlar mintaqada qishloq xo‘jaligini mashinalashgan ishlab chiqarishga tayyorlashning ilk strategik bosqichi bo‘lib tarixga kirgan.

1920-yillarning ikkinchi yarmidan boshlab Surxondaryo okrugi iqtisodiyotida tub islohotlar davri boshlandi. Bu davrda qishloq xo‘jaligini modernizatsiya qilish, xususan, yer-suv islohotlarini o‘tkazish va tarqoq dehqon xo‘jaliklarini birlashtirish asosiy vazifa etib belgilandi. Mazkur iqtisodiy jarayonlarning muvaffaqiyati bevosita qishloq xo‘jaligiga texnikani joriy etish va Mashina-traktor stansiyalari (MTS) faoliyati bilan bog‘liq edi.

1925–1940-yillar oraligʻida Surxondaryo vohasida yangi yerlarni oʻzlashtirish va paxtachilikni rivojlantirishda MTSlar hal qiluvchi rol oʻynadi. MTS parklarining turli xil mashinalar va asbob-uskunalar bilan boyitilishi quyidagi natijalarni berdi:

- Ogʻir jismoniy mehnatni talab qiluvchi yer haydash, ekin ekish va kultivatsiya jarayonlari bosqichma-bosqich texnika zimmasiga oʻtkazildi.

- Paxta va boshqa ekinlarni eng qulay muddatlarda ekish hamda hosilni yigʻib olish imkoniyati kengaydi.

- Kvadrat-uyalab ekish, oʻgʻitlarni maʼlum chuqurlikka solish va gʻallani tor qatorlab ekish kabi progressiv usullar aynan MTS texnikalari yordamida amalga oshirildi.

Surxondaryoning murakkab geografik sharoitida sugʻorish tizimini qayta qurish hayotiy zaruriyat edi. 1930-yillarga kelib, MTSlar yordamida:

1. Mayda sugʻorish uchastkalari yiriklashtirildi.

2. Sugʻoriladigan maydonlar tekislanib, suvdan foydalanish samaradorligi oshirildi.

3. Yangi kanallar va gidrotexnik inshootlar qurilishida texnik kuchdan keng foydalanildi.

1940-yilga kelib, Surxondaryo okrugida qishloq xoʻjaligi texnikasi salmogʻi sezilarli darajada ortdi. Garchi mehnatga yaroqli aholi soni va ishchi kuchi migratsiyasi kabi qiyinchiliklar mavjud boʻlsa-da, MTSlarning kuchli texnik bazasi hisobiga ish hajmi muvaffaqiyat bilan bajarildi. Bu esa vohada dehqonchilik madaniyatini yuksaltirishga va paxta mustaqilligini taʼminlashga xizmat qildi [2, B.14.].

1920-yillarning ikkinchi yarmi va 1930-yillar Surxondaryo okrugi (vohasi) iqtisodiyotida tub burilish davri boʻldi. Bu davrda qishloq xoʻjaligini mexanizatsiyalashtirish, xususan, “Toshselmash” kabi yirik zavodlarda ishlab chiqarilgan qishloq xoʻjaligi mashinalarining vohaga kirib kelishi muhim rol oʻynadi.

Gazeta materiallarida qayd etilishicha, 1938-yilga kelib respublikada, jumladan Surxondaryo kabi agrar viloyatlarda quyidagi iqtisodiy natijalarga erishilgan:

- 1940-yilga kelib, qishloq xoʻjaligida mehnatga yaroqli kuchlar soni kamaygan boʻlsa-da, ish hajmi MTSlar (Mashina-traktor stansiyalari) tarkibidagi kuchli texnika yordamida muvaffaqiyatli uddalangan.

- Paxtachilik brigadalarida traktorlar bilan purkash, changlatish va oʻgʻitlarni talab qilingan chuqurlikka solish kabi jarayonlar joriy etildi.

- Surxondaryo vohasida yangi sugʻorish tizimlarini joriy qilish, mayda sugʻorish uchastkalarini yiriklashtirish va yerlarni tekislash ishlari aynan MTS texnikalari yordamida amalga oshirildi.

- 1930-yillarning birinchi yarmi Oʻzbekiston, xususan Surxondaryo okrugi iqtisodiyoti tarixida qishloq xoʻjaligi potentsialini yuksaltirish va tarmoqlararo texnik integratsiyani taʼminlashning hal qiluvchi davri boʻldi. Markazlashgan sanoatlashtirish siyosati doirasida 1931-yilda respublika poytaxtida yirik ishlab chiqarish obyektlarining ishga tushirilishi chekka okruglarni, jumladan Surxondaryo agrar sektorini mahalliyashtirilgan texnika bilan taʼminlash jarayonlarini jadallashtirdi.

- Surxondaryo okrugi paxtachiligini mexanizatsiyalashtirishda qishloq xoʻjaligi mashinasozligi zavodi (boʻlajak “Toshselmash”) qurilishi davlat nazoratidagi ustuvor vazifa sifatida muhim ahamiyat kasb etdi. Ushbu loyihaning amalga oshirilishi Surxondaryo kabi uzoq agrar hududlar uchun texnik bazani yaratishning poydevori boʻldi:

- 1931-yil 10-yanvarda Oʻrta Osiyo Byurosi tomonidan qurilish va texnika yetkazib berish ehtiyojlarini fundamental oʻrganish uchun maxsus ilmiy-texnik komissiya safarbar etildi.

- 20-yanvardagi qoʻshma qarorlar bilan Surxondaryo okrugidagi qishloq xoʻjaligi ishlarini jadallashtirish uchun zarur boʻlgan mashinasozlik mahsulotlarini ishlab chiqarishning iqtisodiy asoslari tasdiqlandi.

- Sanoatlashtirishning dastlabki bosqichida Surxondaryo okrugiga texnika yetkazib berish jarayonlari murakkab texnik sharoitlar va resurslar taqchilligi bilan tavsiflanadi. Hujjatli

materiallar tahlili shuni ko'rsatadiki, zavodlar qurilishi va texnikalarni joylarga yetkazishda mexanizatsiyalash darajasi o'ta past bo'lgan:

- Qurilish va logistika jarayonlarida asosiy yuk tashish ishlari an'anaviy transport vositalari (aravalar) va og'ir jismoniy mehnat hisobiga bajarilgan.

- Xomashyoni (masalan, qum) qo'lda qazib olish va tashish amaliyoti o'sha davrdagi texnologik imkoniyatlarning cheklanganligini, bu esa Surxondaryo okrugida qishloq xo'jaligi texnikasi parkini shakllantirish sur'atlariga bilvosita ta'sir ko'rsatganini tasdiqlaydi [4, B.4.].

1930-yillarning oxiriga kelib, Surxondaryo okrugida qishloq xo'jaligi madaniyati sezilarli darajada yuksaldi. Gazeta ma'lumotlariga ko'ra:

1. Paxta va sabzavot ekinlarini uzoqlama va ko'ndalangiga ishlash imkoniyati yaratilib, bu mehnat unumdorligini oshirdi.

2. G'allani tor qatorlab ekish va donli ekinlarni alohida o'rish usullari qo'llanila boshlandi.

3. Texnikani boshqarish uchun mahalliy yoshlardan mexanizatorlar va brigada boshliqlari tayyorlashga alohida e'tibor berildi.

1938-yilga kelib, sanoat korxonalari tomonidan qishloq xo'jaligi uchun ishlab chiqarilgan uskunalar soni 1937-yilga nisbatan sezilarli darajada o'sgan. Bu jarayon Surxondaryo okrugida xomashyo yetishtirish hajmini oshirishga va hududning respublika iqtisodiyotidagi mavqeini mustahkamlashga xizmat qildi [4, B.4.].

1940-yillarning birinchi yarmi O'zbekiston SSR iqtisodiyoti uchun murakkab, ammo texnik jihatdan yuksalish davri bo'ldi. Mamlakat besh yillik rejaning to'rtinchi yiliga qadam qo'yishi bilan sanoat va qishloq xo'jaligi integratsiyasi yangi bosqichga ko'tarildi. Tadqiqot obyekti sifatida ko'rilayotgan ushbu davrda Toshkent mehnatkashlarining respublika iqtisodiy qudratini oshirishdagi hissasi alohida ilmiy ahamiyatga ega.

1941-yilning birinchi yarmiga kelib, respublika mashinasozlik sanoatining lokomotivi bo'lgan "Toshselmash" zavodi paxtachilikni kompleks mexanizatsiyalashda rekord ko'rsatkichlarni qayd etdi. Zavod tomonidan ishlab chiqarilgan va qishloq xo'jaligiga yetkazib berilgan texnikalar soni agrar sohadagi texnik quvvatni tubdan o'zgartirdi:

- Sakkiz qatorli chigit seyalkalari: 14 000 dona.
- Kultivatorlar: 11 900 dona.
- Chizellar: 5 200 dona.
- Paxta terish va boshqa maxsus mashinalar: 2 000 dan ortiq.

Bundan tashqari, yangi barpo etilgan paxta tozalash zavodlarining to'liq mazkur korxona texnikalari bilan jihozlanishi mahsulotga bo'lgan ichki talabning mahalliy ishlab chiqarish hisobiga qondirilganligini ko'rsatadi.

1941-yil 22-iyunda fashistlar Germaniyasining SSSR chegaralariga bostirib kirishi iqtisodiyotning tinch qurilishdan harbiy izga o'tishini taqozo etdi. 190 ta dushman diviziyasining hujumi sharoitida O'zbekiston sanoat korxonalari front ortidagi tayanch nuqtasiga aylandi.

O'zbekiston agrar sektori tarixida 1925–1940-yillar paxtachilik mustaqilligiga erishish va sohani texnik modernizatsiyalashning fundamental davri hisoblanadi. Birinchi jahon urushi va undan keyingi ijtimoiy-siyosiy inqirozlar natijasida tanazzulga yuz tutgan paxtachilik tarmog'i aynan shu yillarda davlatning tizimli iqtisodiy choralari natijasida qayta tiklandi.

1923-yildan boshlab sohada ijobiy dinamika kuzatilib, 1927-yilga kelib mahsulot yetishtirish hajmi inqilobdan oldingi darajadan oshib ketdi. Bu muvaffaqiyatning asosiy omillari sifatida quyidagi islohotlarni ko'rsatish mumkin:

- Yer resurslarini qayta taqsimlash natijasida dehqon xo'jaliklarining iqtisodiy bazasi shakllantirildi.

- Davlat tomonidan kontraktatsiya (tayyorlov) tizimining joriy etilishi, dehqonlarga pul va natura shaklida avanslar berilishi iqtisodiy rag'batni oshirdi.

- Meliorativ kooperatsiyalar orqali dehqonlarni ish hayvonlari, mineral o'g'it va zarur mehnat qurollari bilan ta'minlash yo'lga qo'yildi.

1928-yilda hosildorlik ko'rsatkichlari (o'rtacha 9,4 s/ga) pastligicha qolayotgan edi, bunga asosiy sabab mayda tarqoq xo'jaliklarning texnik imkoniyatlari cheklanganligi bo'lgan. Muammoning yechimi sifatida qishloq xo'jaligini kollektivlashtirish va mexanizatsiyalash jarayoni boshlandi:

- 1930-yilda O'zbekistonda birinchi Mashina-traktor stansiyalari (MTS) tashkil etilib, 1940-yilga kelib ular murakkab texnik majmualarga aylandi.

- 1930-yillarda agrotexnik tadbirlarning mexanizatsiyalash darajasi keskin o'sdi (quyidagi jadvalga qarang).

Tadqiq etilayotgan davrda respublika qishloq xo'jaligini modernizatsiyalash jarayonlari, xususan, paxtachilik tarmog'ini ilg'or texnik vositalar bilan tizimli ta'minlash masalasi iqtisodiy samaradorlikning fundamental omili sifatida namoyon bo'ldi. An'anaviy mehnat qurollaridan voz kechilishi hamda ishlab chiqarish jarayonlariga traktorlar, kombaynlar, kultivatorlar va melioratsiya tadbirlari uchun mo'ljallangan yuqori texnologik agregatlarning keng joriy etilishi sohaning texnik imkoniyatlarini tubdan transformatsiya qildi.

Asosiy ko'rsatkichlar va erishilgan iqtisodiy samaradorlik tahlili:

- traktorlar sonining qariyb ikki barobarga ortishi va quvvatli ekskavatorlar zaxirasining shakllanishi yirik irrigatsiya hamda melioratsiya loyihalarini qisqa muddatlarda yakunlash imkoniyatini yaratdi.

- paxtachilikning strategik agrotexnik bosqichlarida yuqori ko'rsatkichlarga erishildi: xususan, yer haydash jarayoni 96 % ga, chigit ekish 97 % ga, kultivatsiya ishlari esa 70 % darajaga yetkazildi.

- hosilni yig'ib olishda mashina terimini joriy etish orqali muhim texnologik burilish yasaldi va tegishli agregatlar soni 9 ming donadan oshirildi.

- o'g'itlash, zararkunandalarga qarshi kimyoviy ishlov berish va ko'rak tozalash kabi agrotexnik tadbirlar deyarli to'liq mexanizatsiyalashtirildi.

Sug'orish tizimlarining yangilanishi va yer tuzish ishlarining takomillashtirilishi natijasida agrar sohadagi texnik modernizatsiya jarayonlari yanada jadal tus oldi. Mazkur iqtisodiy va texnologik o'zgarishlar hududning ishlab chiqarish quvvatini oshirish bilan birga, qishloq xo'jaligi mehnatini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tardi [5, B.4.].

Muhokama. 1925–1940-yillar oralig'ida Surxondaryo okrugi qishloq xo'jaligida kuzatilgan texnologik transformatsiya jarayonlari faqatgina miqdoriy ko'rsatkichlar bilan emas, balki sohaning institutsional qayta qurilishi bilan ham xarakterlanadi. 1926-yilda Sherobodda agromarkazning tashkil etilishi, mintaqada paxtachilikni boshqarishning markazlashgan tizimiga o'tishda muhim bosqich bo'ldi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, ushbu markazning 12 ta paxtachilik va 5 ta bedachilik hududiga bo'linishi o'sha davr uchun mutlaqo yangi bo'lgan hududiy-ishlab chiqarish komplekslari elementlarini shakllantirgan [1, V. 6].

Sanoatlashtirish siyosatining ustuvor yo'nalishi sifatida "Toshselmash" zavodining ishga tushirilishi uzoq agrar hudud bo'lgan Surxondaryoni mahalliyashtirilgan texnika bilan ta'minlash imkonini berdi. Garchi 1931-yildagi arxiv materiallarida texnika yetkazib berishda logistik muammolar va jismoniy mehnat ulushi yuqoriligi (qum qazib olish va aravada tashish kabi) qayd etilgan bo'lsa-da, 1930-yillarning ikkinchi yarmiga kelib vaziyat tubdan o'zgardi [3, B. 2]. 1938-yildagi gazeta ma'lumotlari tahlili shuni ko'rsatadiki, paxtachilik brigadalarida traktorlar yordamida purkash va o'g'itlash jarayonlarining joriy etilishi mehnat unumdorligini keskin oshirgan [4, B. 4].

MTSlarning (Mashina-traktor stansiyalari) faoliyati nafaqat texnik xizmat ko'rsatish, balki mintaqaning gidrotexnik holatini yaxshilashda ham hal qiluvchi rol o'ynadi. Mayda sug'orish uchastkalarining yiriklashtirilishi va yerlarni tekislash ishlarining texnika yordamida bajarilishi Surxondaryoning murakkab geografik sharoitida sug'orma dehqonchilik samaradorligini kafolatlatadi. 1941-yilning birinchi yarmida rekord darajadagi 14 000 dona seyalka va 11 900 dona kultivatorning yetkazib berilishi sohaning texnik jihatdan to'liq qayta qurollanganligidan dalolat beradi [5, B. 2].

Xulosa. 1925–1940-yillarda Surxondaryo okrugi qishloq xo‘jaligida kechgan jarayonlarni o‘rganish asosida quyidagi yakuniy xulosalarga kelindi. Birinchidan, 1920-yillarning ikkinchi yarmida Surxon-Sherobod mintaqasida birinchi agromarkazlarning shakllantirilishi, an‘anaviy tarqoq dehqonchilikdan ixtisoslashgan va tizimli agrar sektorga o‘tishning institutsional poydevorini yaratdi. Mazkur tuzilmalar hududiy-ishlab chiqarish komplekslarining ilk namunasi sifatida boshqaruvni markazlashtirish imkonini berdi.

Ikkinchidan, o‘rganilayotgan davr mintaqa uchun texnik inqilob bosqichi bo‘ldi. 1931-yilda yer haydash kabi agroteknik tadbirlarni mexanizatsiyalash darajasi atigi 9,7 foizni tashkil etgan bo‘lsa, 1940-yilga kelib bu ko‘rsatkichning 89,2 foizga ko‘tarilishi paxta mustaqilligini ta‘minlashdagi asosiy texnologik omil bo‘lib xizmat qildi.

Uchinchidan, “Toshelmash” kabi yirik sanoat korxonalari bilan o‘rnatilgan integratsiya va MTSlar faoliyatining kengayishi qishloq xo‘jaligini modernizatsiyalashda hal qiluvchi rol o‘ynadi. Kuchli texnik baza front ortidagi murakkab sharoitlarda ham belgilangan ish hajmlarini sifatli bajarishni kafolatladi.

Xulosa qilib aytganda, tizimli modernizatsiya natijasida Surxondaryo vohasida dehqonchilik madaniyati yuksaldi, irrigatsiya-melioratsiya holati yaxshilandi va mahalliy professional mexanizator kadrlar qatlami shakllandi. Bu esa mintaqa iqtisodiyotini nafaqat miqdoriy o‘sish, balki ma‘muriy-iqtisodiy boshqaruvning sifat jihatidan yangi bosqichiga olib chiqdi.

Foydalanilgan adabiyotlar

I. Arxiv hujjatlari:

1. Surxondaryo viloyati davlat arxivi. 19-fond, 1-ro‘yxat, 45-ish, 6-varaq.

II. Adabiyotlar:

2. Ibrohimov G‘. Kompleks mexanizatsiya brigadalari. – Toshkent: 1958. – 14 b.
3. Ibrohimov G‘.A. Kompleks mexanizatsiya brigadalari. – Toshkent: «Qizil O‘zbekiston», «Pravda Vostoka» va «O‘zbekistoni Surx» birlashgan nashriyoti, 1961. – 28 b.
4. Rashidov G. 1938-yil: Toshkent salnomasi // Toshkent haqiqati. – 1975. – 28-avgust. – B. 4.
5. Гафт М.М. Бешинчи беш йилликда Ўзбекистонда пахтачиликнинг ривожланиши // Фан ҳақида суҳбатлар. №41-42. Ўзбекистон КП Марказий Комитети ҳузуридаги «Қизил Ўзбекистон», «Правда Востока» ва «Ўзбекистон Сурх» бирлашган нашриёти. – Тошкент, 1953. – Б. 4.